

*Ochni to'q yo'lga sololmas,*

*To'q ochga do'st bo'lmas*

*Xalq maqoli*

**I. Sana: 2012 yil 28-noyabr**

**II. Sinf: 9-“N”**

**III. Mavzu: “Insonning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlari”**

**IV. Maqsad**

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga insonning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlari mundarijasini ochib berish va ularning shaxs uchun ahamiyatini ko'rsatish, shaxs tomonidan o'z ijtimoiy va iqtisodiy huquqlari ro'yobga chiqarilishi zarur ekanligini ko'rsatib berish, davlatning shaxsning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini ta'minlash bo'yicha majburiyatlarini ochib berish. **Darsning tarbiyaviy**

**maqsadi:** O'quvchilarga ijtimoiy iqtisodiy huquqlarning kishilarning hayotidagi ahamiyati va davlatni ularni ta'minlashdagi ro'li haqida tushuncha berib munosib turmush darajasini yarata oladigan insonni tarbiyalash.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'zaro raqobat orqali fanga qiziqish va fikirlash qobiliyatlarini rivojlantirish, o'z fikrini bayon qilish malakalarini

hosil qilish orqali huquqiy demokratik davlatga munosib vorislarni tarbiyalash.

**Mavzu ustida ishlash natijasida:**

-Ijtimoiy iqtisodiy huquqlarning kishilar hayotidagi ahamiyati va davlatning ularni ta'minlashdagi ro'li to'g'risida bilib olasiz.

### **Shuningdek, Siz:**

-Ijtimoiy iqtisodiy huquqlarning har bir kishi hayotidagi ahamiyatini aniqlashingiz;

-Insonning ijtimoiy iqtisodiy huquqlariga putur yetkazilgan holning aniqlashingiz;

-Ta'limga, uning inson hayotidagi o'rniga o'z munosabatingizni bayon qilishingiz;

-O'z nuqtai nazariningizni dalillashtirishingiz mumkin

### **V. Darsning turi: aralash.**

**VI. Darsning uslubi: aqliy hujum, rolli o'yin, nuqtai nazaring bo'lsin o'yini, savol-javob, blits so'rovi, bahs-munozara, guruhlarda ishlash, o'zingizni sinang, klaster .**

### **VII. Darsning jixozlari:**

-O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;

-darslik;

-plakatlar;

-tarqatma materiallar;

-test savollari;

-kompyuter, ekran, proektor;

-“Mulochilik to'g'risida” qonun

-“Ta’lim to’g’risida ” qonun

-“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”

-Mehnat tog’risida kodeks

- “Insonning munosib turmush tarsi nimada mujassamlashgan?”  
degan yozuvli plakat

-“0” “50” “100” yozilgan tablichkalar

### **DTS talablari**

O’quvchilar Konstitusiyaviy huquq asoslari ga oid quyidagi bilim, ko’nikma va malakalarni egallashlari shart;

O’zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasining tuzilishi va mazmunini tavsiflay olish, inson va fuqarolarning konstitusiyaviy huquqlari va erkinliklarini, ulardan foydalanish kafolatlarini bilish;

Konsitutsiya va qonunlarga rioya qilish, ularni hurmat qilish malakalariga ega bo’lish;

O’zbekiston Respublikasining davlat boshlig’i, davlat hokimiyati tizimi: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatiga bo’linishini ularning vazifalarini tushuntira olish;

Davlat boshligi va parlament, Ozbekiston Respublikasi konstitusiyaviy tizimini muhofaza qilish, milliy davlat tuzilishi masalalariga oid qarorlarni ro’yobga chiqarish borasida zarur chora tadbirlar belgilashni, xalqaro munosabatlarda Respublika nomidan ish ko’rishini bilish;

O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida voyaga yetmaganlar tushunchasi, ularga qo’llaniladigan huquqiy aktlar, voyaga yetmaganlarning huquqiy holatini bilish;

Ta’lim sohasi va yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy tamoyillari, yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy, jismoniy kamoloti uchun barcha huquqiy asoslar mavjudligini bilish;

O'zini kelajagi buyuk davlat bunyodkori sifatida his etib, mamlakat taraqqiyotiga munosib ulush qo'sha olishni bolish va unga intilish.

## **VII. Asosiy tushuncha va atamalar:**

Mulk daxlsizligi

Mulkchilik xilma xilligi

Erkin kasb tanlash

Majburiy mehnat taqiqlanganligi

Ijtimoiy yordam olish huquqi

Malakali tibbiy xizmatdan foydalanish

Bilim olish huquqi

Ilmiy texnikaviy ijod huquqi

Madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi

.

## **Darsni bosqichlari jadvali:**

Taskiliy qism: sinf xonasini sanitarik va gigenik xolatini tekshirish, davomatni aniqlash	1-minut
Guruhlarga bo'lish, Oltin qoida	2-minut
O'tilgan mavzuni so'rash. Blitss usuli	2-minut

Aqliy hujum,o'qituvchi axboroti	5-minut
Guruhlarda ishlash	8-minut
O'quvchilarning ijtimoiy iqtisodiy huquqlar haqidagi bildirishlari	4-minut
Ro'lli o'yin	10-minut
“Nuqtai nazaring bo'lsin” mashqi	10-minut
Yakunlar chiqarish. Klaster	3-minut
Uy vazifasi, baholash	1-minut

**Ajratilgan soat: 1-soat**

Davomat aniqlanib, darsning oltin qoidalari yaratiladi.

-Yangilik

-Izlanish

-Faollik

-Ozodalik

-Erkin fikr

-Do'stona munosabat

-Reglament

O'quvchilar “kuz mevalari” orqali to'rt guruhga bo'linadilar.

- Anor
- Olma
- Behi
- Uzum

### **VIII.** Uy vazifasi gurhlardan blitss usulida so'raladi.

1. Siyosiy huquqlar insonga nega kerak?
2. Shaxsiy va siyosiy huquqlar qay tarzda o'zaro bog'langan?
3. Davlat jamoat birlashmalari faoliyatiga aralasha oladimi?
4. Tinch namoyishlar, mitinglar va yig'gilishlarda ishtirok etish insonga nima beradi?
5. Ko'ppartiyaviylik tizimi afzalliklarini nimada ko'rasiz?
6. Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan qaysi partiyalar va harakatlarni bilasiz?
7. Nimalar shaxsiy huquqga, nimalar esa siyosiy huquqlarga oid ekanligini aniqlang?
  - qadimgi sharqda nimjon bolalarni jarga uloqtirishardi;
  - sinfdosh qiz partadosh duhonasining xatini berkitiqcha o'qidi;
  - insonni boshqa dinga o'tishga zo'ravonlik bilan majburlashdi;
  - mahalliy hokimyat organlarining tanqid qiluvchi maqolalarni e'lon qilish taqiqlangan.

Ro'yxatni yana misollar bilan to'ldirishingiz mumkin

### **Yamgi mavzuga kirish;**

Ushbu darsga tayyorgarlik u o'tkaziladigan sanadan 1 yoki 2 hafta oldin amalga oshiriladi, ya'ni o'quvchilar guruhlariga ajratiladi va rolli o'yin uchun ularning vazifalari tushuntiriladi.

Qaysi huquqlar muhimroq degan nuqtai nazarni aniqlash va huquqlarga putur yetkazish rolini rolli sahnalarga tayyorgarlik ko'rish borasida topshiriq beriladi;

Nuqtai nazaring bo'lsin mashqida ishtirok etish uchun o'quvchilar guruhi belgilanadi.

Dars boshlanishidan avval sinf honasini guruhlarda ishlash uchun tayyorlab qo'yiladi, "0", "50" va "100" raqamlar yozilgan tablichkalar osiladi

Oldindan tashkiliy ishlar darsning asosiy qismiga vaqt sarflashga imkon beradi.

## **II. Darsning borishi**

Dars boshida o'qituvchi o'quvchilarni dars rejasi bilan tanishtiriladi.

1. Munosib turmush darajasi nimadan iborat?
2. Inson huquqlaridan qaysilari eng muhimi sanaladi?
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan ijtimoiy -iqtisodiy huquqlar.
4. Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarga putur yetkazilishi. Ularni qay tarzda bartaraf etish mumkin?
5. Ma'lumot kerakmi

## **III. Dars mavzusi ustida ishlash.**

1. Aqliy hujum. O'qituvchi sinfga savol beradi: "Sizningcha, Munosib turmush darajasi nimadan iborat"

- Yaxshi yashash

- Chiroyli kiyinish
- Mazali ovqatlanish
- Dam olish
- Boy badavlat bo'lish
- Ilmli bo'lish
- Sanatoriyada davolanish.

O'quvchilar o'z fikr va g'oyalarini plakatlarga yozib taqdim etadilar va o'qituvchi yakun chiqaradi.

#### **IV. O'qituvchi axboroti**

Konstitutsiyamizning ikkinchi bo'limi muhim huquqiy institute- inson va fuqarolaruing asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan bo'lib, "Ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar " deb nomlangan IX-bobda fuqarolarning huquq va erkinliklarining iqtisodiy kafolatlash davlatda amal qilib turgan iqtisodiy tizim orqali namoyon bo'ladi. Har bir mamlakatda shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklari uning jamiyatda erkin yashashini ta'minlash maqsadida mustahkamlanadi. Bu bevosita shaxslarning moddiy manfaatlarini himoyalash va ularni ta'minlash bilan bog'liqdir davlat ularni amalga oshirishga ko'maklashadi sharoit yaratadi

Hech kim qashshoqlikda yashashni, ochidan o'lib ketishni istamaydi. Har kim sivilizatsiya va madaniyat havola etgan barcha ne'matlardan foydalanishni hohlaydi. Inson uchun qaysi huquqlarning eng muhim ekaligi hususida ko'pdan ko'p mulohazalar mavjuddir. Birovlar fuqaroviy va siyosiy huquqlar eng muhimi deb hisoblasa, boshqalar ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni shular jumlasiga kiritadi, uchinchi birovlar esa insonning sog'lom muhitda yashash huquqi eng asosiysi deydilar.



## **V. Yangi mavzuni ro'yobga chiqarish ustida ishlash.**

1. O'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savol bilan murojat qiladi.

Inson huquqlaridan qaysi biri eng muhimi sanaladi? (Guruhlarda ishlash)

**1-guruh “Anor”** – Biz konstitutsiyaga faqat shaxsiy (fuqarolik) va siyosiy huquqlar kiritilishi lozim deb hisoblayman. Bular-yashash huquqi, so'z, fikr, axborot erkinligi, vijdon, bir joydan ikkinchi joyga ko'chish erkinligidir.

Biz hozircha mehnat qilish, ta'lim olish huquqi, barcha uchun turar joy kabi ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni ta'minlashga qodir emasmiz.

Agar biz bu huquqlarni qonun bilan mustahkamlab qo'yishga urungudek bo'lsak, unda hukumat fuqarolik va siyosiy huquqlarga kerakli darajada e'tibor bera olmaydi.

**2-guruh “Olma”** – Biz bu takidni maqullamaymiz. Eng avvalo, iqtisodiy huquqlar ta'minlanishi lozim deb hisoblaymiz. Agar, kishilarning yeydigan ovqati bo'lmasa, ish va turar joyga ega bo'lmasa, qanaqa siyosiy huquqlar haqida so'z bo'lishi mumkin?

**3-guruh “Behi”** – Bularning hammasi to'g'ri, ammo Siz davlat hammani ish bilan ta'minlay oladi deb hisoblaysizmi? Bizning fikrimizcha buning imkoni yo'q.

**4-guruh “Uzum”** – Taxminimizcha, iqtisodiy huquqlarni kafolatlash mushkuldir. Ammo hukumat kam ta'minlanganlarga (pensionerlar, mehatga layoqatsizlar va h) imtoyozlar berishga majburdir

## **VI. O'qituvchi xulosasi**

O'quvchilar, demak barcha huquqlar inson uchun nechog'lik muhim ekanligini, ular bir biri bilan uzviy bog'liqligini, biri boshqasini qay yo'sinda to'ldirishini bilib oldingiz

## **VII. Darsning keyingi bosqichi.**

“Nuqtai nazaring bo'lsin” mashqda 9-11 nafar o'quvchi ishtirok etadi (hohishga ko'ra). Ular doska yonida turadilar, doskaga esa har ikkala tomonida va markazida “0”, “50”, “100” raqamlari yozilgan tablichkalar osilgan bo'ladi.

O'qituvchi quyidagini bayon qiladi:”Ma'lumotsiz ham yaxshi yashayversa bo'ladi” va bu bayonotga nisbatan nuqtai nazarda bo'lishni taklif etadi. O'quvchilar “0”, “50”, “100” nuqtai nazarlarini egallaganlaridan keyin o'qituvchi o'z nuqtai nazarini tanlab olishini asoslab berishini tavsiya etadi.

1-o'quvchi: Savdo-sotiq bilan shug'ullanib yaxshi yashasa bo'ladi  
“0”

2-o'quvchi: Chet elga chiqib ishlab yaxshi yashamoqchiman.”0”

3-o'quvchi: Biznes bilan shug'ullanib yashamoqchiman.”0”

4-o'quvchi: Boshlang'ich ta'limni olib, so'ngra ishlamoqchiman.  
”50”

5-o'quvchi: Ma'lumotsiz yaxshi yashab bo'lmaydi. “100”

6-o'quvchi: Oliy ma'lumot olgandan keyingina yaxshi yashash mumkin.”100”

7-o'quvchi: Ma'lumot doim ham kerak bo'lavermaydi, odam uddabron bo'lsa bo'lgani. “50”

8-o'quvchi: Inson go'zal bo'lsa chiroyli kiyinsa ma'lumotsiz ham hammani e'tiborida bo'ladi va hokazo.”0”

U yoki bu nuqtai nazarni mustahkamlash maqsadida keltirilgan barcha vajlarni tinglaganidan keyin o'qituvchi kimdir bayon etilgan asoslar ta'sirida kimdir o'z nuqtai nazarini o'zgartirmaydimi, deb so'raydi. Agar nuqtai nazarda o'zgarish ro'y bersa, o'qituvchi qaysi asoslar ko'proq ishonchli tuyulganini so'raydi.


**VIII. Yakunlar chiqarish.**(o'tilgan mavzuni mustahkamlash, klaster usulida )

1-guruh: Mulkdor bo'lish huquqi


2-guruh: Bilim olish huquqi

3-guruh: Malakali tibbiy xizmatdan foydalanish


4-guruh: Mehnat qilish va dam olish huquqi




2-guruh



3-guruh



4-guruh



Uyga topshiriq berilib o'quvchilar baholandi

*Foydalanilgan adabiyotlar:*

*1.I. A. Karimov “Yuksak manaviyat-yengilmas kuch”.*

*2.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi .T. 2012y.*

*3. Mehnat kodeksi T.1995 y*

*4.”Mulkchilik tog‘risida” qonun. T.1990y*

*5. “Ta’lim tog‘risida” qonun. T.1997 y*

*6. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. T.1997 y*





